

MAKEDONIYALIK ALEKSANDIRNING HARBIY YURUSHLARI

Rustamova Mashhura Baxrombek qizi

Urganch Davlat Unversiteti

Ijtimoiy- Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mintaqalar va yo`nalishlar bo`yicha)

Yo`nalishi bo`yicha 1- bosqich talabasi.

Annatsiya: Ushbu maqola Makedoniyalik Aleksandirning Istilochilik yurishlari haqida ma`lumot berib o`tadi. Aleksandirning harbiy yurishlari haqida keltirib o`tilgan faktlarning hammasi tarixiy dallilarga asoslangan. Tadqiqotlar Makedoniyalik Aleksandirning harbiy yurishlari haqida qiziqarli ma`lumotlar berib o`tadi.

Kalit so`zlar: Aleksand Makedonskiy, otasi Flipp, Makedoniya, Yunoniston, ustози Aristotel, Lashkarboshi Ptolomey Lag, sarkardalari Karan va Farrux, tarixchisi Aristobul, Hindiston o`lkasi, Ahamoniylar sulolasi, Sug`diyona, Baqtriya, Sipeaman, Bobil (Suriya), Misr.

Аннотация: Эта статья о завоевательных кампаниях Александра Македонского дает информацию. Из приведенных фактов о военных походах Александра все основано на исторических свидетельствах. Исследования армии Александра Македонского дает интересную информацию о своих прогулках.

Ключевые слова: Александр Македонский, его отец Филипп, Македония, Греция, его учитель Аристотель, главнокомандующий Птолемей Лаг, его полководцы Каран и Фаррух, историк Аристобул, земля Индии, династия Ахеменидов, Согдиана, Бактрия, Сипетаман, Вавилон(Сирия), Туман.

Annotation: This article is about Alexander the Great`s campaigns of conquest gives information. Of the facts mentioned about Alexander`s military campaigns all based on historical evidence. Studies of the military of Alexander the

Great gives interesting information about their walks.

Key words: *Alexander of Macedon, his father Philip, Macedonia, Greece, his teacher Aristotle, Commander- in-Chief Ptolemy Lag, his generals Karan and Farrukh historian Aristobulus, the land of India, the Achaemenid, Sogdiana, Bactria, Siptaman, Babyl, Mist.*

Ulkan Ahamoniylan saltanati o'zining g'arbiga qilgan ekspansiyasi natijasida Yunon davlatlari bilan to'qnashadi va buning natijasida mil. avv. 5-asrning birinchi choragida yunon-fors urushlari boshlanadi.

Mil. avv. 5-asr davomida betinim urushlar, saroydagi fitnalar, bosib olingan xalqlarning ozodlik uchun kurashlari Ahamoniylar davlatini ancha zaiflashtirib qo'ygan edi. Mil. avv. 4-asrning o'rtalaridan boshlab esa, Bolqon yarim orolidagi shahar davlatlar kuchaya boshlaydi. Bu davrda Makedoniya podshosi Filipp Bolqon yarim orolida o'z mavqeini mustahkamlab olib Ahamoniylar bilan kurashga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Filipp o'z davriga mos harbiy islohotlar tatibli va yaxshi qurollangan qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ladi. Mil. avv. 336-yilda Ahamoniylar davlatiga qarshi kurash boshlanadi. Ammo, Filipni o'ldirilishi bilan bu kurash to'xtab qoladi. O'sha yili taxtga Filipning o'g'li, 20 yoshli Aleksanir o'tiradi. U Ahamoniylar bilan kurashga jiddiy kirishib, Kichik Osiyodan Parmenion boshliq qo'shinlarni chaqirtirdi. Harbiy kengash tuzib quriqlikda va suvda harakat qilayotgan qo'shinlar oldiga aniq vazifalar qo'ydi.

Mil. avv. 334-yl mayida (Graniq daryosi yonida), mil. avv. 333-yil oktabrida (Gavgamela, Shimoliy-sharqiy Mesapotamiyada) bo'lgan janglarda fors qo'shinlari to'la mag'lubiyatga uchradi. Shundan so'ng Aleksandir uchun Ahamoniylar davlatining markazlariga yo'l ochilgan edi. Aleksandr dastavval Bibilni, so'ngra Suza, Persepol, Pasargada shaharlarini egallab fors podsholarining xazinalrini qo'lga kiritdi. So'ngi Ahamoniy hukumdor Doro 3 avval Midiya keyin esa Baqtriyaga qochib ketdi. Tarixchi Kivint Kursiy Rufning Ma'lumot berishicha Baqtriyada Doro3 ga qarshi fitna uyushtiriladi va u o'ldiriladi. Bu fitnaga boshchilik

qilgan Bess o'zini Ahamoniylar podshosi deb e'lon qiladi. Ammo Bess Aleksandriga qarshi harbiy qo'shinlarni qarshi qo'ya olmaydi. Mil.avv.329- yilning bahori qadar Aleksandr Ariya, Drangiyona, Araxosiyo kabi viloyatlarni egallab Oks- Amudaryo bo'ylariga chiqib keladi. Arrian va Kursiy malumotlariga ko'ra bu paytda daryo juda sersuv bo'lib, to'lib oqar edi. Amudaryodan kechuv joyini taqqiqotchilar Kelif atroflar, Chushqagozar, Termiz atroflari va Sharob deb hisoblaydilar. Nima bo'lganda ham, Aleksandr qo'shinlari qoplara somon- xashak toldirib ular orqali 5 kun davomida Amudaryodan kechib o'tganligi haqida yozma manbalarda ma'lumotlar saqlangan. Aleksandr qo'shinlari daryodan o'tgach bessni taqib qilib Sug'd viloyati Navitakaga yo'l oladilar (avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg'or qism, keyin asosiy kuchlar). Sug'dyerlarida Sipetaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandirni to'xtatib qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshirdilar. Ammo Aleksandrda harbiy yurishlarni to'xtatish niyati yo'q edi. Navtakadan so'ng yunon- makedon qo'shinlari Sug'diyonaning poytaxti samarkandaga yurish qilib uni egallaydilar. Kursiy Ruf ma'lumotlariga ko'ra yunon-makedonlar shaharda o'zlarining kichik garnizonini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib, shimoli-sharqqa tomon harakat qilib boshlaydilar. Jizzax va O'ratepa oralig'idagi tig'li hududlarda yunon-makedon qo'shimlari qattiq talofat ko'radilar. Aleksandrning o'zi ham qttiq yaraor bo'ladi. Shunga qaramay tog'li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag'lub etgan yunon-makedonlar dasht ko'chmanchilari saklar va Sug'diylar o'rtasida chegara bo'lgan Yaksard-Sirdaryoga tomon harakat qiladilar.

Yunon –makedlar Yaksard bo'yida to'xtab bu yerga o'zharbiy qismlarini joylay boshladilar. Ko'p o'tmay bu shaharlar aholisi Aleksandrga qarshiqo'zg'alonlarko'taradilr. Daryoning o'ng qirg'oqidagi saklarham o'z qo'shinini bir yerga to'play boshlaydilar. Xuddi shu payt Baqtriya va Sug'diyona hududlarida ham aleksandrga qarshi qo'zg'alonlar boshlanib ketadi. Aleksandr dastlab Yaksard bo'yida o'z mavqeyini mustahkamlashga qaror qilib, bu yerdagi qo'zg'alonlarni bostirdi. Sug'diyonada mil. avv. 329-yil kuzidagi qo'zg'alonni (Marokanda) bostirish uchunsaklarda Farnux boshchiligidagi qo'shinlarni jo'natdi.

O'zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo bu yurish muvafaqiyatsiz tugadi.

Farnux boshliq Marokandaga jo'natilgan qo'shinlar Spitamon tomonidan mag'lubiyatga uchratildi. Aleksandr o'zi asosiy kuchlar bilan Sug'diyonaga qaytishga majbur bo'ldi. O'rta Osiyoda ko'tarilgan qo'zg'olonlar yunon-makedon zulmidan ozod bo'lishga qaratilgan bo'lib, Aleksandrni "varvarlarni, osonlikcha bosib olmoqchi bo'lgan rejasini puchga chiqardi.

Sug'diyonaning tog'li hududlaridagi bosqinchilar qadami yetmagan joylarda qo'zg'olonchilar yashirinib olgan edilar. Sug'diyonaning deyarli barcha a'zosi Spitaman tomonida bo'lib, uning g'labalariga kata umid bog'lagan edilar. Aleksandr esa mil. avv. 329-28- yillar qishlovini (baktryada, ba'zi manbalarda Navtakada deyiladi) o'tkazar ekan vaqtini bexuda o'tkazmadi. U bu yerda Xorazm hukmdori farasman bilan muzokaralar olib bordi. Natijada Aleksandrning Xorazimga yurish rejasini to'xtatdi. Mil. avv. 328-yil bahorida yunon –makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal'alar va tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Avval jiddiylashganidan havotirga tushib Aleksandr 30 minglik qo'shinni 5 guruhga bolib, bu guruhlarga ishonchli sarkardalar Gefestion, Ptolomey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi.

Yunon- makedonlarni shavqatsiz urushlari natijasida ko'pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu o'rinda Spitamanni jasorati haqida to'xtalish joizdir. U doim raqiblarini zaif joylarini izlar va ularga hamisha o'sha joyidan zarba berar edi. Spitaman sug'diy va baqtriyalik zodagonlar hamda saklar bilan ittifoqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha mil. avv. 328-yil oxirida Spitamo o'z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo'ladi.

Spitamon halok bo'lganidan so'ng asosan tog' qalalari qo'zg'olonlar o'choqiga aylandi. Yozma manbalarda eslatilgan "Sug'd qoyasi, (yoki "Arimaz qoyasi,)" "Xoriyen qoyasi, shular jumlasidandir.

Aleksandr Makedonskiy mahalliy aholini kuch bilan yengish nihoyatda og'ir ekanini anglab yetganidan so'ng turli yo'llar bilan ularga yaqinlashishga qaror qildi.

Mahalliy xalq vakillariga nisbatan siyosatni tubdan o`zgartirdi. Xususan, Zardushiy kohinlariga ancha erkinlik berib o`zi ham bu dinni qabul qildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. R.Rajabov “Qadimgi dunyo tarixi”, “Fan va texnologiya” nashriyoti “Toshkent” 2009. 290-300 betlar.
2. A.A sagdullayev “O`zbekiston tarixi” darsligi “Donishmand ziyosi”nashriyoti “Toshkent” 2021.205-210 betlar.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Zikr ahlidan so`rang”. “Hilol-nashr” nashriyoti. 2018. 2-jild 40-41 betlar.
4. <https://Daryo.uz/2023/2024>.
5. <https://uz.m.wikipedia.org>.
6. <https://m.aniq.uz>.